

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova</b>	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash .....	538
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi .....	542
<b>Sh.H.Nuritdinova</b>	
Online english language learning and its promotion .....	547
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Development of intercultural communicative competence .....	551
<b>M.M.Nurmatova</b>	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication .....	554
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi.....	557
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar.....	560
<b>Ш.Ё.Усмонова</b>	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском языках и особенности их употребления.....	563
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalogizmlarining madaniy ta'siri .....	567
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Nemis va o'zbek frazalogizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida .....	571
<b>S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva</b>	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi.....	575
<b>F.B.Abduraximova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari .....	578
<b>A.O.Oxunov</b>	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari.....	583
<b>D.K.Jumaniyazov</b>	
Developing language skills and cultural competence in english through films .....	587
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка.....	590
<b>Д.Х.Муротова</b>	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения .....	597
<b>F.B.Abduraximova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	599
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Lingvistik bo'shlinqi to'ldirishning 6 xil yo'li .....	604
<b>Г.Т.Галимуллина</b>	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта» .....	608
<b>M.A.Ahundjanova</b>	
Foreign languages and their teaching methodologies .....	611
<b>F.T.Raximova</b>	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar .....	615
<b>Sh.Z.Xolmatov</b>	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan .....	618
<b>T.R.Madinakhan</b>	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar .....	623
<b>Z.A.Qochqorova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi .....	628
<b>M.B.Yusupova</b>	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili .....	633



**DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TIL O'RGANUVCHILARNING  
O'ZLASHTIRISH JARAYONINI BAHOLASH**

**ОЦЕНКА ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА**

**EVALUATING THE PROCESS OF LEARNING THE LANGUAGE OF LEARNING AND  
IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON**

Kaxarova Mavluda Mukaramovna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, professor

Muxammadaminova Dildora Azatovna<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Gyote instituti til bo'limi boshlig'i

***Annotatsiya***

*Maqolada chet tilini o'qitish jarayonida baholashning ahamiyati va turli usullarini o'rganish bo'yicha batafsil tahlillar berilgan. Diagnostika va baholash o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, ehtiyojlarini aniqlash va ta'llim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim vosita sifatida ko'nib chiqiladi. Rasmiy baholash xalqaro standartlashtirilgan testlar (IELTS, TOEFL) orqali o'quvchilarning grammatic bilmlari va asosiy til ko'nikmalarini obyektiv baholash imkoniyatini beradi. Norasmiy baholash esa moslashuvchanligi bilan dars davomida o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlashda va ularga individual yondashuvni qo'llashda yordam beradi. Formativ baholash o'quvchilarning davomiyl rivojlanishini kuzatish va o'qituvchilarga darsni moslashtirish imkonini bersa, summativ baholash yakuniy natijalami baholashda muhim rol o'yinaydi. Maqolada formativ baholashning motivatsion xususiyatlari, jumladan, qayta aloqa orqali o'quvchilarning ta'llim jarayonini yaxshilashga qaratilgan amaliyotlari haqida so'z boradi. Rasmiy va norasmiy baholash, shuningdek, formativ va summativ yondashuvlarining uyg'unligi ta'llim sifatini oshirishda va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ekani ta'kidlangan. Shuningdek, diagnostik usullardan foydalananish o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda alohida o'r'in tutadi. Baholash jarayoni orqali o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'llim samarali tashkil etiladi, bu esa ta'llim sifatining yanada oshishiga olib keladi.*

***Annotatsiya***

В статье представлен углубленный анализ значимости и различных методов оценки в процессе преподавания иностранного языка. Диагностика и оценивание рассматриваются как важные инструменты для отслеживания прогресса учащихся, выявления их потребностей и повышения эффективности образовательного процесса. Формальная оценка, такая как стандартизированные международные тесты (IELTS, TOEFL), позволяет объективно оценивать грамматические знания и основные языковые навыки учащихся. Неформальная оценка, напротив, отличается гибкостью и помогает выявить слабые стороны учащихся в ходе уроков, обеспечивая индивидуальный подход к их потребностям.

Формативная оценка направлена на постоянное отслеживание развития учащихся и помогает преподавателям корректировать уроки, тогда как суммативная оценка играет ключевую роль в оценке итоговых результатов. В статье подчеркиваются мотивационные аспекты формативной оценки, включая предоставление конструктивной обратной связи для улучшения образовательного процесса учащихся.

Особое внимание уделяется важности интеграции формальной и неформальной оценки, а также формативного и суммативного подходов как средства повышения качества образования и развития компетенций учащихся. Кроме того, использование диагностических методов отмечается как ключевой фактор повышения педагогического мастерства преподавателей. Процесс оценивания позволяет адаптировать обучение к потребностям учащихся, способствуя общему повышению качества образования.

***Abstract***

*The article provides an in-depth analysis of the significance and various methods of assessment in foreign language teaching. Diagnostics and assessment are presented as essential tools for monitoring learners' progress, identifying their needs, and enhancing the efficiency of the educational process. Formal assessment, such as standardized international tests (IELTS, TOEFL), allows for an objective evaluation of learners' grammatical knowledge and core language skills. Informal assessment, on the other hand, is flexible and supports identifying learners' weaknesses during lessons, enabling tailored approaches to their needs.*

*Formative assessment focuses on tracking learners' continuous development and helps teachers adjust their lessons accordingly, while summative assessment plays a vital role in evaluating final outcomes. The article highlights*

## TILSHUNOSLIK

*the motivational aspects of formative assessment, including providing constructive feedback to enhance learners' educational progress.*

*The importance of integrating formal and informal assessments, along with formative and summative approaches, is emphasized as a means of improving the quality of education and fostering learners' competencies. Additionally, employing diagnostic methods is noted as a key factor in enhancing teachers' pedagogical skills. The assessment process effectively adapts education to learners' needs, contributing to overall educational quality improvement.*

**Kalit so'zlar:** rasmiy baholash, norasmiy baholash, summativ baholash, formativ baholash, diagnostik ko'nikmalar, til o'rnatish samaradorligi.

**Ключевые слова:** формальное оценивание, неформальное оценивание, суммативное оценивание, формирующее оценивание, диагностические навыки, эффективность обучения языку.

**Key words:** formal assessment, informal assessment, summative assessment, formative assessment, diagnostic skills, language teaching effectiveness

## KIRISH

Chet tilini o'qitish zamonaliviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda diagnostika va baholash faoliyati asosiy o'rinn egallaydi. Til o'rganuvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, ularning ehtiyojlarni aniqlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun diagnostik yondashuv va baholash usullari o'ta muhim hisoblanadi.

Baholash o'quv jarayonining turli bosqichlarida amalga oshiriladi va u ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: rasmiy va norasmiy baholash. Rasmiy baholash xalqaro tan olingan imtihonlar va testlar yordamida amalga oshirilsa, norasmiy baholash o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni qo'llaydi.

Bundan tashqari, baholash summativ va formativ bo'lishi mumkin. Summativ baholash o'quv jarayonining yakuniy natijalarini baholashga qaratilgan bo'lsa, formativ baholash o'quvchilarning davomiy rivojlanishini kuzatib borishga yo'naltirilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, rasmiy va norasmiy baholashning afzallik va cheklowlari haqida ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, Grotjahn va Kleppin (2017) hamda Dlaska (2009) tomonidan berilgan tavsiyalar asosida chuqr tahlil olib borildi. Shuningdek, baholashning summativ va formativ shakllarining ta'lim jarayonidagi o'rnnini o'rganishda Europaratning CEFR doirasidagi metodikasi asos sifatida qabul qilindi.

Empirik kuzatuv orqali o'quv jarayonida rasmiy va norasmiy baholashning samaradorligi tahlil qilindi. Bu bosqichda sinflarda amalga oshirilgan diagnostik vazifalar va test natijalari o'rganildi. Jumladan, quyidagilar kuzatildi:

- Til o'rganuvchilar uchun xalqaro standartlashtirilgan testlarning (IELTS, TOEFL) samaradorligi.
- O'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan test va topshiriqlarning moslashuvchanligi.

Taqqoslash usuli Rasmiy baholash (masalan, xalqaro testlar) va norasmiy baholash (masalan, dars davomida o'tkazilgan qisqa testlar) o'zaro solishtirildi. Ushbu usul orqali baholash jarayoniningadolatli va samarali jihatlari o'rganildi.

Dinamik tahlilda formativ baholash orqali o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi kuzatildi. O'quv jarayonida o'quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash va ushbu ma'lumotlar asosida dars rejasini qayta tuzish tajribasi o'rganildi.

Statistika va ma'lumot tahlilida To'plangan ma'lumotlar asosida statistik tahlil o'tkazildi. Masalan, xalqaro testlar va sind ichidagi baholash natijalarining o'zaro bog'liqligi matematik usullar yordamida baholandi. Olingan natijalar grafik va diagrammalar orqali aks ettirildi.

## NATIJA VA TAHLILLAR

Rasmiy baholash, ayniqsa, xalqaro standartlashtirilgan testlar, til o'rganuvchilarning bilim darajasini obyektiv baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. IELTS, TOEFL kabi testlar til o'rganuvchilarning grammatik bilimlarini to'liq aks ettirishi, ko'nikmalarni (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) alohida baholash imkonini berishi [4,5-165] va xalqaro tan olinuvchi sertifikatlar orqali o'quvchilarning kompetensiyalarini tasdiqlashini kuzatish mumkin.

Norasmiy baholash usullari orqali o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilganligi sababli ta'lif jarayonining samaradorligini oshirishi, moslashuvchan bo'lib, dars davomida o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash va ularga e'tibor qaratishda yordam berishini ko'rish mumkin. Masalan, o'quv jarayonida o'tkazilgan qisqa testlar o'quvchilarning grammatika va lug'at boyligini tahlil qilish imkonini beradi [1,33].

Rasmiy va norasmiy baholashdan tashqari, **formativ va summativ yondashuvlar ham ta'lif jarayonida kuzatilib**, formativ baholash o'quvchilarning rivojlanish jarayonini kuzatish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Formativ baholashni o'quvchilarning natijalarini vaqt o'tishi bilan yaxshilanish dinamikasini ko'rsatishi, o'qituvchiga ta'lif jarayonini moslashtirishga yordam berishi kabilar amalda o'z isbotini topmoqda. Masalan, darsda formativ baholash orqali o'qituvchi til o'rganuvchilarning vaqt o'tishi bilan o'zlashtirish darajasida sezilarli o'zgarishlarni aniqlaydi.

Summativ baholashni qo'llash o'quvchilarning yakuniy natijalarini aniqlashda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi, lekin bu usulning rivojlanish jarayonidagi dinamikani aniqlashda chekllovlar borligini kuzatish mumkin. Masalan, semester yakunida o'tkazilgan baholash o'quvchilarning umumi darajasini aniq ko'rsatadi, ammo rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumot bermaysligi seziladi.

Summativ baholash ta'lif tizimida ichki yoki tashqi ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ichki baholash maktab yoki boshqa ta'lif muassasasi doirasida amalga oshiriladi, tashqi baholash esa davlat miqyosidagi javobgarlikni ta'minlash uchun o'tkaziladi.

Ichki baholashga misol qilib, o'quv yilining yoki semestrning oxirida beriladigan baholarni keltirish mumkin. Tashqi baholash esa ma'lum ta'lif bosqichida belgilangan standartlarga qanchalik erishilganligini baholash uchun davlat miqyosida o'tkaziladigan testlar orqali amalga oshiriladi [3,76].

Summativ baholashning asosiy maqsadi sifat nazoratini amalga oshirishdir. U ko'pincha quyidagi funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi:

- Baholash: O'quvchilar bilim darajasini ball yoki baho ko'rinishida ifodalash.
- Yo'naltirish: O'quvchilarni ma'lum bir kursga yoki yo'nalishga ajratish.
- Saralash: Masalan, oliy o'quv yurtiga kirish imkoniyatini aniqlash.

Rasmiy baholashning asosiy afzalligi uning obyektivligi va standartlashtirilganligida ko'rish mumkin. Ammo, bu yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni ta'minlamasligini ham alohida e'tirof etish mumkin. Norasmiy baholash esa, aksincha, o'quvchilar ehtiyojlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi, ammo uning natijalari esa rasmiy sertifikatsiyaga mos kelmasligi mumkin.

Formativ baholash o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashda yordam beradi, summativ baholash esa o'quv jarayonining yakuniy natijalarini baholashda qo'llaniladi. Ushbu ikki yondashuvning uyg'un qo'llanilishi ta'lif sifatini oshirish imkonini beradi.

#### *Formativ baholashning muhim jihatlari quyidagilarda deb belgilash mumkin:*

1. **Tasviriy qayta aloqa:** Fikr-mulohazalar baholovchi emas, balki tushuntiruvchi bo'lishi kerak. Bu o'quvchiga faqat natijani ko'rsatish emas, balki ularning o'quv jarayonidagi o'zgarishlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. **Baholashdan voz kechish:** Muhokama iloji boricha ball yoki baho bilan bog'lanmasligi kerak. Baho qo'yish o'quvchida stress yoki demotivatsiyaga sabab bo'lishi mumkin, shu bois asosiy e'tibor o'quvchini rag'batlantirishga qaratiladi.

3. **Motivatsiyani oshirish:** Muhokama o'quvchilarning ta'lif jarayoniga qiziqishini oshirish va o'z maqsadlariga erishish uchun ularga ilhom beruvchi tarzda berilishi kerak. Masalan, "Sizning yozishingizda bu o'zlashtirish yaxshi, ayniqsa jumla tuzishda, lekin o'tgan zamon fe'llari ustida yanada ishslash foydali bo'ladi," kabi mulohazalar o'quvchi/talabaga anqlik va rag'bat beradi va bu kabi yondashuv til o'rganuvchilarga o'zlarini baholashni va kelgusi o'quv bosqichlarini rejalashtirishni o'rganishlariga yordam beradi [1,47]. Bu esa faqatgina bilim o'zlashtirishni emas, balki o'quvchi/talabalarning o'z ustida ishslash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Formativ baholashning bunday motivatsion yondashuvi o'quv jarayonini yanada mazmunli va samarali qiladi.

Ko'p martalab formativ test o'tkazish orqali o'quvchi/talabalarning til kompetensiyalaridagi rivojlanish dinamikasini yaxshiroq tushunish mumkin. Bugungi kunda o'quv kompetensiyalarini

**TILSHUNOSLIK**

chiziqli rivojlanmaydi, balki dinamik tizim sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchi/talabalar tilidagi kompetensiyalar o'zgaruvchan, vaqt-vaqt bilan tizim ichida keskin o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin [2,78].

Baholashning turli usullarini o'zaro uyg'unlashtirib qo'llash dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Rasmiy baholash natijalari o'quvchilarni umumiylah qilishda, norasmiy baholash esa individual yondashuvni qo'llashda samarali ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, baholash orqali dars samaradorligini oshirishda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

1. O'qituvchilar diagnostik va formativ baholashni ta'lif jarayonining ajralmas qismi sifatida qabul qilishlari lozim.
2. Baholashda o'quvchilarning ehtiyojlari va individual rivojlanishlarini hisobga olish uchun norasmiy yondashuvlar keng qo'llanishi kerak.
3. Rasmiy baholash natijalaridan kelib chiqib, darslarni moslashtirish amaliyotini kengaytirish lozim.

**XULOSA**

Baholash jarayonining rasmiy va norasmiy shakkari, shuningdek, formativ va summativ yondashuvlari til o'rganuvchilar bilimini baholashda asosiy o'rinni tutadi. Rasmiy baholash standartlashtirilganligi sababliadolatli va obyektiv natijalarni ta'minlasa, norasmiy baholash moslashuvchanligi bilan dars jarayonini samarali tashkil qilishga imkon beradi.

Formativ baholash orqali o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi va dars mazmuni ularning ehtiyojlarga moslashtiriladi. Summativ baholash esa yakuniy natijalarni baholashda muhim rol o'yaydi.

Baholash jarayonida ikki yondashuvning uyg'unligi ta'lif sifatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, diagnostik ko'nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanish o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Grotjahn R., Kleppin K. Prüfen, Testen, Evaluieren. Ernst Klett Sprachen GmbH, Stuttgart. – 2017. – S.176.
2. Ballweg S.u.a. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? Deutsch lehren lernen. Band 2. München: Klett-Langenscheidt. – 2013. – S.198.
3. Dlaska A. Sprachtests: Leistungsbeurteilungen im Fremdsprachenunterricht evaluieren und verbessern. Schneider Verlag. – 2009. – S.209.
4. Europarat. Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: Lernen, Lehren, beurteilen. Berlin: Langenscheidt. – 2001. – S. 304.